



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

Yanvar-noyabr oylari 2021-yil


O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining virtual qabulxonasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
168

Qo'mitaning elektron veb-sahifasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
886

O'zbekiston Respublikasi
Bosh vazirining virtual
qabulxonasi orqali kelib
tushgan murojaatlar
30

To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan
yozma murojaatlar
409

Qo'mita rahbariyatining shaxsiy
va sayyor qabulidagi kelib
tushgan og'zaki murojaatlar
174



Davlat statistika qo'mitasiga 2021-yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 1667 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 168 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 30 ta O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi orqali, 886 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 409 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 174 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.



Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2021-yil yanvar-noyabr holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



438 tasi (jamiga nisbatan 26,2 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



365 tasi (21,9 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



76 tasi (4,6 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



105 tasi (6,3 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish yuzasidan



140 (8,4 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan



12 tasi (0,7 %) taklif turidagi murojaatlar



488 tasi (29,3 %) Reyting va baholash masalida Qurilish vazirligiga korxonalar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



43 tasi (2,6 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2021-yil yanvar-noyabr holatiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2020-yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2021-yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25	37
Andijon viloyati	15	74
Buxoro viloyati	34	110
Jizzax viloyati	25	52
Qashqadaryo viloyati	22	97
Navoiy viloyati	25	49
Namangan viloyati	21	65
Samarqand viloyati	26	90
Sirdaryo viloyati	17	67
Surxondaryo viloyati	17	103
Toshkent viloyati	93	125
Farg'ona viloyati	33	60
Xorazm viloyati	20	49
Toshkent shahar	842	685
Boshqa hududlardan	5	4



Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 685 ta (o'tgan yilning shu davrida 842 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 125 ta, Buxoro viloyatidan 110, Surxondaryo viloyatidan 103 ta, Qashqadaryo viloyatidan 97 ta, Samarqand viloyatidan 90 ta, Andijon viloyatidan 74 ta, Sirdaryo viloyatidan 67 ta, Namangan viloyatidan 65 ta, Farg'ona viloyatidan 60 ta, Jizzax viloyatidan 52 ta, Xorazm viloyatidan 49 ta, Navoiy viloyatidan 49 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 37 ta va boshqa hududlardan 4 ta murojaatlar kelib tushgan.



Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2021-yil yanvar-noyabr oylari holatiga

Jami: 1667



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 1667 ta murojaatlarning 1428 tasiga chora ko'rildi, 235 tasi tushuntirildi, 4 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 24,0 % (408 ta) jismoniy shaxslar va 76,0 % (1259 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch telefonlari:

(71) 202-81 80

Elektron pochta manzilimiz:

info@stat.uz



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi.

Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2- bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi boshlig'i: F. Berdibayev telefon raqam: (71 202 81 77)